

Mavzu : Biologiya - hayot haqidagi fan

Darsning maqsadi : Botanika faniga kirish . O'quvchilarni yangi fanga qiziqtirish.

Kirish qismi : O'quvchilarga darsga kirishib olishi uchun 4 - sinf Tabiatshunoslik darsligini takrorlab olish . O'qituvchi : Egamberdiyeva Nilufar o'quvchilar bilan Tabiatshunoslik darsligini tezkor savol - javob tarzida takrorlab oladi . Kirish qismi 5 minut .

Asosiy qism : Botanika faniga kirish . Botanikaning qanaqa fan ekanligi , uning tirik tabiat bilan uzviy bog'liqligi , hayotimizdagi o'rni haqida o'quvchiga ko'nikma berish . Dars davomida botanika fanining o'rni , uning o'rganilish obyektlari , botanika fanining ahamiyati haqida o'qituvchi : Jabborova Sarvinoz tushuntirib o'tadi . Dars davomida Botanika fanining rivojlanishiga hissa qo'shgan o'zbek olimlari haqida o'qituvchi: Hamroyeva Zulxumor tushuntirib beradi . Asosiy qism - 15 minut

Dars davomida o'quvchilarni biologiya faniga qiziqtirish maqsadida Interfaol metodi qo'llaniladi . Bu metodda o'quvchilar 3 ta guruhga bo'linib " Mashinani yurgiz " nomli metod orqali o'quvchilar o'tilgan mavzuni takrorlaydilar . O'qituvchilar : Jabborova Sarvinoz va Egamberdiyeva Nilufar "Mashinani yurgiz " metodi 5 minut

" Pufak ichidagi qiziqarli savollar " metodida o'quvchilar har bitta guruhdan bittadan o'quvchi chiqib guruh shanini himoya qiladi . Ya'ni sharlar ichida qiziqarli savollar yashiringan. O'quvchilar sharlarni puflab yorishlari va ichidagi savolni o'qib javob berishlari kerak bo'ladi . O'qituvchi : Begdullayev Nurg'isa "Pufak ichidagi qiziqarli savollar " 5 minut

"Sirli konvert" metodida o'quvchilar topishmoqlarning javobini topib sirli konvert ichidagi hayvon qismlarini birlashtirishi kerak . O'qituvchilar : Hamroyeva Zulxumor va Haqqulova Umida . "Sirli konvert metodi " 10minut

Har bir metodlar davomida har bir o'quvchilar rag'batlantirib boriladi va dars yakunida hisoblab g'olib guruhga sovg'alar beriladi .

Darsni takrorlash : o'qituvchi : Haqqulova Umida darsni tezkor savol javoblar orqali takrorlab o'quvchilarni baholab boradi . 5 minut .

O'quvchilarga dars yuzasidan vazifa berish : 5 minut